

PEDAGOGIK MAHORAT

7
2025



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

7-son (2025-yil, iyul)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025, № 7

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Zotova Firuza Raxmatullova, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 7, 2025

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Антриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры, спорта и туризма, Россия)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор

Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Жумиев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор

Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор

Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент

Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 7, 2025

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullova (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev

PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov

PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
	DILOVA Nargiza Gaybullayevna	Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida “ilm – tarbiya – innovatsiya” zanjirining ahamiyati	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
	ADILOVA Noila Baxridin qizi	Montessori ta’lim konsepsiyasi va klaks pedagogikasining uzviyligi: individual va ijtimoiy rivojlanish integratsiyasi	13
	АЛОВДДИНОВА Нулуфар Мансуровна	Ўқувчиларни касб танлашга йўналтиришда интердисциплинар ёндашувнинг илмий-назарий таҳлили	17
	AXMEDOV Bekjan Askarovich	Tanqidiy fikrlash va media savodxonligini maktab o‘quv dasturlariga integratsiya qilish	21
	EGAMOVA Ozodaxon Saydamqul qizi	Taomlanish buzilishlarining psixologik jihatlar	25
	ERGASHEVA Fatima Toyirovna	Talabalarining metaprofessional kompetentligini rivojlantirishda transformativ va produktiv o‘qitish modellari	29
	ERKINOV Ramziddin Tulqin o‘g‘li	Bo‘lajak “geografiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha bajarilgan ishlar mazmuni	36
	ESHANOVA Moxira Yuldashbayevna	Oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalarini samarali baholashning ahamiyati	42
	IBODOVA Umida Shuhratillo qizi	Hamshiralik ta’limida kreativlikni shakllantirishning pedagogik omillari	48
	ISMATOVA Halovat Baxtiyorovna	O‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik muammolari	52
	KAYUMOVA Go‘zal Narzullayevna	Yoshlarda nikoh motivlari va oila haqidagi pozitiv tasavvurlarni shakllantirish modeli	57
	MINGYASHAROVA Sevara Abdulla qizi	Bo‘lajak muhandislarning media kompetentligini axborotlashgan ta’lim muhitida rivojlantirishning istiqbolli mexanizmlari	61
	NOROVA Nafisa Farxodovna	Xalqaro rivojlangan oliy ta’lim muassasalaridagi amaliyot turlari	66
	RAXIMOV Raximjon Rajapboyevich	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanini ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish metodikasi	71
	RUZIBOYEV Temur Bahodirovich	Yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (davlat hokimiyati organlari misolida)	75
	SHOYIMOV Shermurod Shavkat o‘g‘li	Pedagogik dasturiy ta’minotda kompyuter texnologiyalari: talablar va metodlar	79

UO’K 37.01

**O’QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
MUAMMOLARI**

Ismatova Halovat Baxtiyorovna,

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası o’qituvchisi

Mazkur maqolada o’quvchi yoshlarni tarbiyalash jarayonining ijtimoiy jihatları tahlil qilinib, tarbiyaning jamiyatdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlar tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilikning o’rni va ularning o’zaro hamkorligi masalalari ko’rib chiqilgan. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ijtimoiy muhitning ta’siri, pedagogik yondashuvlar va tarbiyaviy texnologiyalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: o’quvchi yoshlar, tarbiya, ijtimoiy muhit, jamiyat, oila, maktab, jamoatchilik, pedagogika, tarbiyaviy texnologiyalar.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ И
МОЛОДЕЖИ**

В данной статье анализируются социальные аспекты процесса воспитания учащейся молодежи и раскрывается значение воспитания в обществе. Рассмотрены роль семьи, школы и общественности в воспитании молодежи, а также их взаимодействие. Обсуждается влияние социального окружения, педагогические подходы и воспитательные технологии в формировании гармонично развитой личности.

Ключевые слова: учащиеся, воспитание, социальная среда, общество, семья, школа, общественность, педагогика, воспитательные технологии.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF EDUCATING STUDENTS AND YOUTH

This article analyzes the social aspects of the process of educating young students and highlights the importance of upbringing in society. The role of the family, school, and community in youth education, as well as their interaction, is examined. The impact of the social environment, pedagogical approaches, and educational technologies in shaping a well-rounded individual is discussed.

Key words: students, education, social environment, society, family, school, community, pedagogy, educational technologies.

Kirish. Mamlakatimizda bilimli va malakali avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish, jahon andozalariga mos ravishda ta’lim tizimini takomillashtirish borasida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirmoqda. Prezidentimizning 2024-yil 30-sentyabrdagi pedagoglar bilan muloqotida yurtimizdagi barcha ota-onalar, ustoz va murabbiylarga murojaatlarida “Bizning dunyodagi eng aziz va mo’tabar xazinamiz – bu umrimiz guli va mevasi bo’lgan farzand va nabiralарimizdir. Hech shubhasiz, barchamiz ularning kelajakda baxtli va saodatli insonlar bo’lib yashashini istaymiz. Lekin bunga erishish oson emas. Ayniqsa, bugungi tahlikali davrda ezuq maqsadlarga erishish uchun insonga hushyorlik va ogohlik, qat’iy iroda, yuksak bilim va keng dunyoqarash, zamonaviy kasb-hunarlar har qachongidan ham zarur. Ta’lim va tarbiya – butun jamiyatning muqaddas ishidir! Barchamizdan doimo hamjihatlik, faollik va fidoyilikni talab etadigan hayot-mamot masalasidir. Ezgulik, bilim va ma’rifatni qurol qilib, jaholat va yovuzlik yo’lini to’saylik! Farzandlarimizning baxti, yorug’ kelajagi uchun, jonajon Vatanimiz istiqboli uchun mustahkam poydevor yarataylik!” –deb ta’kidladilar. Yurtboshimizning bu murojaati o’quvchi- yoshlarning ta’lim va tarbiyasi o’ta muhim davlat masalasiga aylangani, bugungi globallashuv davrida ularni turli ideologik kurashlardan asrab, davlat va jamiyat mafkurasiga mos ravishda tarbiyalash har bir pedagog-psixologning muhim vazifasi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotlar shuni isbotladiki, o’smirlarni o’z vaqtida tarbiyalash, qayta tarbiyalash va nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish masalasi doimo ota-onalar, maktablar, olimlar, o’qituvchilar va psixologlar o’rtasidagi tortishuvlarga sabab bo’lib kelgan. Bunda nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki jamiyatning umumiy munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashhur pedagoglar A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiy o’zlarining mukammal va asosli ilmiy izlanishlarini o’smirlarga bag’ishladilar. Ular o’z asarlarida o’smirlarni tarbiyalashning ijtimoiy, psixologik

va pedagogik jihatlarini tahlil qilgan holda, har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish kerakligini ta’kidlaganlar. Aytish joizki, bu borada ko‘plab madaniy-ma’rifiy, huquqiy chora-tadbirlar belgilanib, amalga oshirilgan. “Agar yosh bolalarni tarbiyalash juda erta ongli, rahm-shafqat va bir ovozdan amalga oshirilsa, ota-onalar va maktabni qayta tarbiyalash va qayta-qayta og‘riq va iztirobga muhtoj bo‘lmaydi”, deb yozgan edi V.A. Suxomlinskiy. Bu fikr o‘smirlarning kelajagini shakllantirishda maktab va oila hamkorligi qanday muhim o‘rin tutishini yana bir bor isbotlaydi.

Muhokama va natijalar. Ba’zi pedagoglar o‘quvchi-yoshlarning tarbiyasidagi qiyinchiliklarni ularning avlodlari va irsiy xususiyatlaridan kelib chiqishini aytadi. Biroq biz bu fikrni qo‘llab-quvvatlay olmaymiz. Tarbiya va shaxs shakllanishi ijtimoiy muhit, oilaviy an’analar, do‘stlik munosabatlari va jamiyatning bolaga nisbatan munosabati bilan uzviy bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, ba’zi psixolog-pedagoglar tarbiyasi og‘ir bo‘lgan o‘smirlarni maxsus maktablar yoki axloq tuzatish oromgohlariga yuborishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Biroq bunday yondashuv har doim ham ijobiy natija bermasligi mumkin. Chunki bola o‘z jinoyatkor do‘stlarining muhitida tarbiyalansa, u o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va jamiyatdan ajralib qolish hissini kuchaytiradi.

Pedagogik-psixologik ilmiy izlanishlar natijasida o‘smirlar tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish uchun o‘z vaqtida bir qator majburiy choralar ko‘rish zarurligi aniqlandi. Tadqiqotchilar quyidagi masalalarga jiddiy e’tibor berishlari muhim deb bilganlar:

- o‘smirning ota-onalarining turmush tarzi va oiladagi munosabatlari;
- o‘smirning og‘ir tarbiya girdobiga tushib qolish sabablari, ularning jamiyatga integratsiyasi;
- o‘smirning do‘stlari, tengdoshlari va muloqot doiralari, ularning shaxsiy taassurotlariga ta’siri;
- o‘smirning fe’l-atvori, xizmatga bo‘lgan munosabati va jamoada yetakchi sifatidagi rolini aniqlash;
- o‘smirlar tez va ikkilanmasdan jinoiy dunyo tuzog‘iga tushib qolish sabablarini aniqlash.

Shuningdek, bu muammolarni hal etish uchun ilg‘or pedagogik metodlardan foydalanish, o‘quvchilar bilan yakkama-yakka suhbatlar o‘tkazish, ijtimoiy muhitni yaxshilash, ularni ijobiy faoliyatlarga jalb etish kabi yondashuvlarni keng qo‘llash zarur. Bolalarning bandligini ta’minlash, ularni sport, san’at, texnika va ijtimoiy faoliyatga jalb qilish ham jinoyatchilikning oldini olishda samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, o‘smirlarning tarbiyasi nafaqat oila yoki maktab, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun birdek muhimdir. To‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rilgan choralar kelajak avlodning axloqiy barkamolligiga asos soladi va ularning hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Turli mualliflarning tahliliy yondashuvlariga asoslanib aytish mumkinki, o‘smirlik davri ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan inqirozli, "normal patologik" davr sifatida qaraladi. Ko‘p psixologlar bu davrning shiddat bilan kechishini, o‘smirning o‘zi uchun ham, uning atrofidagi kattalar, jumladan, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun ham murakkabligini ta’kidlaydilar.

O‘smirlik davri bolaning bir mashg‘ulotdan ikkinchisiga o‘tishga moyilligi bilan xarakterlanadi, ammo ularning hech birini oxiriga yetkazmasligi kuzatiladi. Bu jarayonda o‘smirlarda sabrsizlik, diqqatni bir joyga jamlashda qiyinchiliklar va o‘z fikrini birozdan keyin o‘zgartirish holatlari uchraydi. Bundan tashqari, nazorat qilib bo‘lmaydigan va ortiqcha faollik, behurmatlik, impulsivlik, baxtsiz hodisalarga tushib qolish, qoidalarni puxta o‘ylamasdan buzish kabi xatti-harakatlar kuzatilishi mumkin. Bu esa o‘smirning nafaqat shaxsiy rivojlanishiga, balki uning atrof-muhitidagi munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smirlarga antisotsial yoki agressiv (qarshilik ko‘rsatuvchi, dag‘al) xatti-harakatlar xos bo‘lib, bu nafaqat uyda, balki maktabda ham namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchilar va ota-onalarning to‘g‘ri yondashuvlari va tarbiya usullari muhim o‘rin tutadi. Ayrim holatlarda, o‘smirlarda o‘zlarini kattalardan uzoqlashtirish, mustaqillikka bo‘lgan orzu va o‘z fikrini har qanday yo‘l bilan himoya qilishga moyillik kuchayishi mumkin.

Bu davrda ijtimoiy-psixologik muammolar ko‘p uchraydi: tengdoshlar bilan samarali muloqotning yo‘qligi, ulardan ajralib qolish, ular tomonidan rad etilish, do‘stlik yoki empatik o‘zaro munosabatlarning shakllanmasligi. Bunday muammolar o‘smirning ruhiy holatiga, o‘zini jamiyatda qanday his qilishiga va kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘smirlarda ijtimoiy guruhlarda o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib, ular guruh ta’siriga tushib qolishlari ehtimoli oshadi.

Kattalarga, jumladan, o‘qituvchilarga nisbatan ko‘plab o‘smirlar norozilik, qattiqqo‘llik va g‘azab bildiradilar. Bu holat ularning ichki dunyosidagi noto‘g‘ri tushunishlar va emotsional o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularga nisbatan to‘g‘ri yondashuv talab etiladi. O‘smirlik davrida ko‘pincha emotsional buzilishlar paydo bo‘ladi. Odatda, psixologik jihatdan o‘smir o‘zini juda yolg‘iz his qiladi, bu esa uning ichki iztiroblarini yanada kuchaytirishi mumkin.

Maktabda o‘smirlarning xos xatti-harakatlari janjalkashlik, xuliganlik, itoatsizlik, dag‘allik, individualizm va avtoritetlarga qarshi turish, qattiq g‘azab va nazorat qilib bo‘lmaydigan hayajonli holatlar,

buzg'unchilik harakatlari bilan xarakterlanadi. Bu holatlarda o'qituvchilar va ota-onalarning doimiy muloqoti va hamkorlikda ish olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ba'zi hollarda yuqorida tasvirlangan buzilishlar doimiy depressiya bilan birga kechadi. Bu esa chuqur azob, qiziqishlarni yo'qotish, jonli, his-tuyg'uga boy o'yin va mashg'ulotlardan lazzatlanmaslik, o'zini aybdor his qilish va umidsizlik kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Boshqa hollarda esa xulq-atvor buzilishlari tashvish, qo'rquv, fobiyalar, majburiy harakatlar yoki sog'liq bilan bog'liq tashvishlar bilan birga kechishi mumkin. Bu holatlarda o'smirlarga nisbatan ruhiy qo'llab-quvvatlash va psixologik maslahat berish tavsiya etiladi.

Shuningdek, bu yosh davrida alkogol va narkotik moddalarga moyillik muammolari ham ko'p uchraydi. Delinkvent (huquqbuzarlikka moyil) o'smirlar orasida uchdan bir qismi alkogoldan haddan tashqari foydalangan va narkotiklar bilan tanish bo'lgan. Iste'mol qilish sabablari esa - guruhga moslashish, qiziqish, kattalarga o'xshash istagi yoki ruhiy holatni o'zgartirishdan iborat. Bu holatlarni oldini olish uchun jamiyat va maktabning birgalikdagi profilaktik ishlari muhim ahamiyatga ega.

O'smirlarda, odatda, ongli ravishda tushunib etilmagan jinsiy hayajonning oshganligi kuzatiladi. Jinsiy identifikatsiya (o'zini ma'lum bir jins vakili sifatida his qilish) to'liq shakllanmaganligi sababli, jinsiy xatti-harakatda ba'zi og'ishlar yuzaga kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, jismoniy yetuklik tezlashgan yoki sekinlashgan o'smirlarda ko'proq uchraydi. Bu jarayonda kattalar tomonidan sog'lom jinsiy tarbiya berishning ahamiyati katta.

Tasvirlangan ijtimoiy-psixologik muammolar va xulq-atvor buzilishlari nafaqat ota-onalarni, balki tajribali o'qituvchilarni ham qiyin ahvolga soladi. Chunki tarbiyaviy choralar ko'pincha o'smirlarni to'g'ri yo'lga solish va ularning muammolarini hal qilish uchun yetarli bo'lmaydi. Aynan o'smirlik davrida maktabda o'quvchining chetlashishi va o'zini chetga tortishi kuchayadi. Unda o'qituvchiga qarshi chiqish, o'z pozitsiyasini himoya qilish va uning fikrini inkor etishga intilish aniq namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlar bilan ishlashda individual yondashuv, ularni tushunish va ularga psixologik jihatdan yordam berish asosiy ahamiyatga ega.

O'smirlik davri psixologik rivojlanish bosqichi sifatida bolaning yangi ijtimoiy mavqega chiqishi, o'z "Men"ini tushunishi va jamiyatdagi o'z o'rnini izlashi bilan xarakterlanadi. Bu davrda bola o'z shaxsini namoyon etish, o'z mustaqilligini isbotlash va kattalar bilan teng maqomda bolish istagini kuchaytirib boradi. Bu jarayonda kopgina ijtimoiy va psixologik muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Haddan tashqari yuqori talablar, o'z imkoniyatlarini notog'ri baholash nevrozlarga, o'zini qadrsiz his qilishga, shuningdek, ota-onalar va o'qituvchilar bilan koplav nizolarga va maktabda qarshilik xatti-harakatlariga olib kelishi mumkin. Biroq o'z mustaqilligini ta'kidlashiga qaramay, o'smir ong ostida ota-ona, o'qituvchi va kattalardan qo'llab-quvvatlash va tushunishni izlaydi, ularning bahosiga muhtoj bo'ladi, biroq o'zini tengdosh sifatida e'tirof etilishini talab qiladi.

O'smirlik davridagi ijtimoiy-psixologik muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Shaxsiy identifikatsiya muammosi – o'smir o'zining kimligini anglashga va o'z o'rnini topishga harakat qiladi.
2. Mustaqillikka intilish – kattalardan ajralib, o'zini mustaqil shaxs sifatida ko'rish istagi.
3. Tengdoshlar ta'siri – o'smirlar tengdoshlari bilan munosabatni birinchi o'ringa qo'yishadi, bu esa ba'zi hollarda salbiy ta'sirga olib kelishi mumkin.
4. O'zini baholash muammolari – o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholay olmaslik, o'z-o'ziga ishonchsizlik yoki aksincha, haddan tashqari o'zini yuqori baholash.
5. Oilaviy munosabatlar – ota-ona bilan kelishmovchiliklar, haddan tashqari nazorat yoki e'tiborsizlik.
6. Maktab va ta'lim jarayoni bilan bog'liq muammolar – o'quv yukining og'irligi, o'qituvchilar bilan ziddiyatlar, motivatsiyaning pastligi.

Shu sababli o'smirlarning ijtimoiy-psixologik muammolarini oldini olish va hal etishda o'qituvchining o'rnini juda muhim. U o'quvchilar uchun namuna, yo'lbo'shchi va ularning iste'dodlarini kashf etib, rivojlantiruvchi inson bo'lishi kerak. Biroq buning uchun o'smir o'qituvchiga ishonishi, uning samimiyligi va yordam berish istagiga ishonch hosil qilishi zarur. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida "emotsional bog'lanish" yuzaga kelishi kerak. Shuni unutmaslik kerakki, o'smirlar ta'sirchan bo'lib, o'qituvchi ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishi kerak. Aks holda, bu ta'sir manfiy oqibatlarga olib kelishi va kelajakda deviant (jamiyatga zid) xatti-harakatlarga sabab bo'lishi mumkin.

O'qituvchi bajarishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar

1. Ota-ona vazifasi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, noto'g'ri muhitda o'sgan, ona mehridan, yoki aksincha, ota mehridan etarli darajada bahramand bo'lmagan yoki ikkalasining ham e'tiborini sezmagani bola

tajovuzkor bo‘lib, qo‘rquv va himoyasizlik hissi bilan yashaydi. Bunday vaziyatda o‘qituvchi o‘smir uchun yaqin insonga aylana oladi.

2. Do‘st vazifasi. O‘smirlarning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri – tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishdir. Zamonaviy o‘qituvchi o‘smir va jamoa o‘rtasidagi muloqotning nega qiyin kechayotgani yoki imkonsizligi sabablarini aniqlashi lozim.

3. Tengdosh sifatida munosabatda bo‘lish. O‘smir teng huquqli munosabatni talab qiladi. O‘qituvchi avtoritar uslubdan voz kechib, ta‘lim va tarbiya jarayonida, ayniqsa, o‘smirlar bilan ishlashda, gumanistik, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llashi kerak.

4. Mas‘uliyatni shakllantirish. O‘qituvchi o‘smirlarga mas‘uliyat yuklab, ularga muayyan vazifalar topshirishi mumkin. Masalan, sinf rahbari, bezatuvchi, madaniyat tashkilotchisi yoki sport sektori rahbari kabi lavozimlarni topshirish mumkin.

5. Ishonchli muhit yaratish. O‘qituvchi o‘quvchiga yaqinroq bo‘lishdan qo‘rqmasligi kerak, chunki bu "o‘qituvchi - o‘quvchi" munosabatlarining buzilishiga olib kelmaydi. Aksincha, bunday yondashuv maktabda mustahkam ishonch va o‘zaro hurmat muhitini yaratadi.

O‘smirlik davrida shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri sodir bo‘ladi. Shu sababli, maktabda o‘qituvchining roli faqatgina ta‘lim berishdan iborat emas, balki tarbiyachi, maslahatchi, do‘st va yo‘lboshchi sifatida ham o‘smirning hayotida muhim shaxsga aylanishi lozim. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta‘lim va tarbiya o‘smirning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va uning kelajakda jamiyatning faol va munosib a‘zosi bo‘lishiga zamin hozirlaydi.

O‘qituvchi o‘smirlar o‘rtasida ijtimoiy-psixologik muammolarning oldini olish va ularni hal etishda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Ammo, afsuski, ba‘zi hollarda u bolalar psixikasiga noo‘rin ta‘sir o‘tkazuvchi asosiy omillardan biriga aylanishi ham mumkin. Shu sababli, o‘qituvchi nimalardan qochishi kerakligiga alohida e‘tibor qaratish zarur. Chunki bu xato yondashuvlar o‘smirlar psixologiyasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi va ular uchun xatarli bo‘lishi mumkin.

1. Ba‘zi o‘qituvchilar o‘quvchilarni bir-birlarini kuzatishga, kim tamaki chekayapti, kim dashnom so‘zlar ishlatyapti yoki kim tartibbuzarlik qilayotgani haqida xabar berishga o‘rgatadilar. Bunday vaziyat sinf jamoasidagi munosabatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va bolalarda maktabga nisbatan qo‘rquv, kamchilik hissi hamda konformizmni shakllantiradi. Bu esa o‘quvchilar orasida ishonchsizlik muhitini keltirib chiqaradi.

2. Ba‘zi o‘qituvchilar ma‘lum bir o‘quvchilarni “favorit” sifatida tanlab, ularga eng mas‘uliyatli vazifalarni topshirishadi va yaxshi xulq-atvori uchun mukofotlashadi. Bu esa ularning o‘zlariga haddan tashqari ishonchi ortishiga, egotsentrizmga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa bolalar esa o‘zlarini kambag‘alroq va kam iqtidorli deb his qilishadi. Bu esa past darajadagi o‘zini baholash, ishonchsizlik va passivlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Barcha o‘quvchilarga teng muomala qilish muhimdir.

3. Tartibsiz o‘quvchilarni nazorat qilishning oson yo‘llaridan biri – ularni doimiy ravishda xavotirga solishdir. Masalan, o‘qituvchi ularni keyingi sinfga o‘tkazmaslik bilan tahdid qilishi mumkin. Bunday yondashuv esa faqat ularning maktabga va o‘qituvchiga nisbatan nafratini kuchaytiradi. Bolalar bilan ochiq va aniq muloqot qilish, ularning o‘qishga qiziqishini oshirish uchun ijobiy usullar qo‘llash kerak.

4. Ba‘zi o‘qituvchilar bolaning xatti-harakatlarini emas, balki uning shaxsiyatini baholashadi. Masalan, tartibsiz bola o‘qituvchi uchun har doim “muammoli”, “noqobil” yoki “bilimsiz” sifatida qoladi. O‘qituvchi uning har qanday yutuqlarini ko‘rishni xohlamaydi va uni faqat tanqid qiladi. Bu esa o‘smir shaxsiyatidagi salbiy xislatlarni yanada kuchaytiradi. Har bir bolaning ijobiy jihatlarini topib, ularni rag‘batlantirish lozim.

5. Bolani past baho qo‘yib jazolash uning o‘quv jamoasidagi maqomini pasaytiradi, uning maktabdan chetlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ba‘zi o‘qituvchilar qasddan uch yoki ikki qo‘yish orqali bolani ikkinchi yilga qolish xavfi bilan tahdid qiladilar. Bu esa bolaning psixik rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, unda nevrozlar va maktabga nisbatan qo‘rquv paydo qiladi. Bunday bolalar ko‘pincha yig‘loqi, asabiy va ranjuvchan bo‘lib qolishadi. Baho bolaning bilimini baholash vositasi bo‘lishi kerak, jazolash vositasi emas.

6. O‘qituvchilar o‘smirni sinfdoshlari yoki aka-uka, opa-singillari bilan taqqoslab, “ular yaxshi, sen esa aksincha” degan fikrni bildirishadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, har bir bola o‘zgacha, uning shaxsiyatini boshqalar bilan solishtirish esa uning psixologik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va noo‘rin o‘z-o‘zini baholashni shakllantiradi. Bolalarni o‘z shaxsiy rivojlanish traektoriyasiga asoslanib baholash kerak.

Xulosa. O‘qituvchi nafaqat tarbiyachi va yo‘lboshchi, balki bolalar uchun samimiy, tushunuvchan va adolatli inson bo‘lishi lozim. U har bir o‘quvchini shaxs sifatida qabul qilishi, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olib harakat qilishi lozim. Har bir bolaga individual yondashish orqali ijtimoiy va psixologik muammolarning oldini olish, ularning shaxsiy o‘sishlarini qo‘llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratish mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘z pedagogik mahoratlarini oshirish va bolalar

psixologiyasini tushunish uchun muntazam ravishda o‘qib-o‘rganib borishlari zarur. Faqat shu yo‘l bilan bolalarga haqiqiy ma’rifat va tarbiya berish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев К. Ф., Жураев Б. Т. Формирование правильной осанки ребенка в семье //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-3 (99). – С. 30-33.
2. Гражданкина Л. В. Психолого-педагогические подходы к воспитательной работе с подростками в современной школе //Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Акмеология образования. Психология развития. – 2010. – Т. 3. – №. 1. – С. 80-84.
3. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.
4. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
5. Ледяева Е. В., Сотков В. А. Социально-психологические проблемы детей подросткового возраста и роль учителя в их профилактике и решении //Инженерные технологии и системы. – 2011. – №. 2. – С. 230-234.
6. Ismatova H. B. Tarbiyasi qiyin va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etishning metodik imkoniyatlari //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1017-1023.
7. Ismatova H.B. O'smirlarda tarbiyasi qiyinlik tipologiyasi va ulardagi muammolarni bartaraf etishning pedagogik-psixologik usullari //American Journal of Innovation in Science Research and Development. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 27-33.
8. Ismatova H. B. The content of education in the pedagogical process //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 70-76.
9. Макаренко А. С. Книга для родителей. – Directmedia, 2015.
10. Сухомлинский В. А. Как воспитать настоящего человека. – 1980.
11. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика: дарслик. — Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.- 232 б